

XORAZM VOHASI AHOLISI IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTIDA BALIQCHILIKNING O‘RNI

Baxtiyoroʻva Oltinoy Baxtiyor qizi

TTA Urganch filiali “Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm vohasi aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida asrlar davomida baliqchilikning tutgan o‘rni ko‘rib chiqiladi. Baliq ovlashning an‘anaviy usullari va ularning mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada sohaning bugungi holati yoritilib, baliq yetishtirish va eksport qilish hajmi bo‘yicha Xorazm viloyatining respublikadagi yetakchi o‘rni alohida ta’kidlangan. Muallif mintaqada baliqchilik xo‘jaligini rivojlantirishda an‘analar davomiyligi va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning ahamiyatini asoslab beradi.

Аннотация: В данной статье рассматривается историко-экономическая роль рыболовства в жизни населения Хорезмского оазиса на протяжении веков. Проанализированы традиционные методы рыболовства и их влияние на социально-экономический уклад региона. В статье также освещается современное состояние отрасли, подчеркивается лидирующая роль Хорезмской области в республике по объемам выращивания и экспорта рыбной продукции. Автор обосновывает значимость преемственности традиций и внедрения современных технологий в развитие рыбного хозяйства региона.

Annotation: This article examines the historical and economic significance of fishing in the lives of the Khorezm oasis population over the centuries. It analyzes traditional fishing methods and their impact on the socio-economic structure of the region. The study also highlights the current state of the industry, emphasizing Khorezm region's leading position in the republic regarding fish production and export volumes. The author emphasizes the importance of historical continuity and the integration of modern technologies in the development of the region's fisheries.

KIRISH

Xorazm vohasi o‘zining geografik joylashuvi, ya’ni Amudaryoning quyi oqimi va Orol bo‘yi deltasida joylashganligi sababli, qadimdan nafaqat dehqonchilik, balki **baliqchilik sivilizatsiyasining** ham o‘chog‘i bo‘lib kelgan. Baliqchilik bu yerda shunchaki yordamchi xo‘jalik emas, balki aholining ijtimoiy tabaqalanishi, iqtisodiy barqarorligi va etnomadaniy qiyofasini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Jumladan, Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi (S.P. Tolstov rahbarligida) ma’lumotlariga ko‘ra, Amudaryoning quyi oqimi va Orol bo‘yi hududlarida neolit davridayoq (Kaltaminor madaniyati) baliqchilik asosiy tirikchilik manbai bo‘lgan. Ekspeditsiya davomida Janubiy Orol bo‘yi manzilgohlaridan ko‘plab suyakdan yasalgan qarmoqlar, tosh to‘rbotirgichlar va baliq suyaklarining qoldiqlari topilgan. Voha aholisi ijtimoiy hayotida baliqchilik muhim ahamiyatga ega ekanligi qadimgi dunyo manbalari ham isbotlaydi. O‘rta Osiyo xalqlari

tarixi bo'yicha eng qadimgi yozma manba hisoblangan Avestoda ham baliqlar xususida muhim to'xtalishlarni ko'rishimiz mumkin.

Asosiy qism. Xorazm dunyodagi eng qadimiy dehqonchilik va baliqchilik markazlaridan biri hisoblanadi. Arxeologik qazishmalar (masalan, Tuyamo'yun yodgorliklari) shuni ko'rsatadiki, neolit davridan boshlab baliqchilik aholining asosiy oqsil manbai bo'lgan. Xorazmda baliqchilikning ijtimoiy asoslarini tushunish uchun miloddan avvalgi IV–III ming yilliklarga oid **Kaltaminor madaniyatiga** murojaat qilish shart. Akademik S.P. Tolstovning tadqiqotlari ushbu davrni "baliqchilar va ovchilar davri" sifatida tavsiflaydi. P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, neolit davri Xorazm aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida baliqchilik **dominant tarmoq** hisoblangan. S.P. Tolstovning qayd etishicha, Kaltaminor jamoalari "o'zlashtiruvchi xo'jalik" ning eng yuqori bosqichida bo'lganlar. Arxeologik qazishmalar davomida topilgan hayvon qoldiqlarining asosiy qismini (ba'zi nuqtalarda 80% gacha) aynan baliq suyaklari tashkil etadi. Amudaryo va Akchadaryo havzalaridan tutilgan **baqrabaliq (osetr), laqqa (som), taran (vobla)** va **sazan** suyaklari ko'p uchraydi. Topilgan ba'zi laqqa baliqlarining umurtqa pog'onalari tahlil qilinganda, ularning uzunligi **2,5–3 metrgacha** yetganligi aniqlangan¹.

Amudaryo o'zining hosildor loyqa suvi bilan birga, xilma-xil baliqlarini ham xorazmliklarga hadya etgan. Shuning uchun Xorazmda qadimdan baliqchilik bilan keng shug'ullanishgan. Xorazm hududini tadqiq qilgan arxeologlar ham Kaltaminor madaniyati qavmlari faqat baliqchilik bilan hayot kechirganliklarini ta'kidlaydilar. Xorazm vohasida, xonlik davrlarida ham bozorlarda, ayniqsa Xiva bozorlarida turli taomlar pishiradigan oshpazlar, kallapazlar va baliqpazlar faoliyat ko'rsatganlar.

Jumladan, XIX asrning 60 yillarida Xiva shahrida baliqpaz va kallapazlar 18 kishini tashkil etganligi qayd etiladi. Haqiqatdan ham, Xorazm hududida ilgari juda ko'p ko'llar bo'lgani uchun voha aholisi asosan baliqchilik bilan shug'ullangan va taomnomasida ham albatta baliqdan tayyorlangan turli xil taomlar bo'lgan. Baliqli taomlar ko'p miqdordagi mineral moddalarga – natriy, kaliy, fosfor, yod, temir, oltingugurt va xlorga boy bo'lib, bu moddalar ayniqsa daryo va dengiz baliqlarida ko'p bo'ladi.

Bundan tashqari baliq tarkibida oqsil, yog' va uglevodlar mutanosib holda bo'lib asosiy oziq mahsulotlariga kiradi. Baliqdagi oqsillar miqdori va sifati jihatidan go'sht oqsillaridan qolishmaydi. Baliq yog'i esa, yaxshi singadi va inson organizmi uchun juda foydali hisoblanadi. Baliq moyi uzoq saqlanmaydi, oksidlanib tez buziladi. Bunday nuqson “zang bosish” deb ataladi. Baliq sirtidagi aynab qolgan yog'ni (qo'lansa “zang” hidli, jigarrang) pishirish vaqtida olib tashlasa bo'ladi. Mushak ichidagi yog' “zang bosib”, taxir bo'lib qolgan bo'lsa, bunday baliq yaroqsiz hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki Xorazmda baliqchilik va baliqli taomlar tayyorlash tarixi — bu insonning tabiiy muhitga moslashishi, resurslardan oqilona

¹ P. Tolstov "Древний Хорезм" (Qadimgi Xorazm) – 1948-yil.74–76.

foydalanishi va boy madaniy meros yaratishining uzviy jarayonidir. Ushbu an’analар bugungi kunda ham mintaqaning iqtisodiy barqarorligi va brend imidjini shakllantirishda xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Сидиқов Д. Лаззатли таомлар. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – Б.23
2. Маткаримова С.М. Хоразм ўзбекларининг анъанавий овқатланиши. Фан доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси. Урганч 2021, 282 бет.
3. Сидиқов Д. Лаззатли таомлар. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – Б.
4. Бартольд В.В. Туркестан при исламе // Соч., т.2, ч. 1. — М., 1963, с.
5. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 134.
6. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С. 325.
7. Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. / Исследование и описание документов с историческим введением / Новые источники для истории Средней Азии. – Л.: Издание Государственной публичной библиотеки, 1940. – С. 139